

2025/05-06
№(4) 38-39

ISSN 2791-3651

Молодой специалист



Выпуск №(4) 38-39 2025/05-06



TOGETHER WE REACH THE GOAL

zenodo



aerjan84@mail.ru



<http://t.me/mspeskz>



+7 705 724 97 69



Проспект Шәкәрім
Құдайбердіұлы, д. 25/3
г. Нур-Султан, РК

ЭЛЕКТРОННЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

«Молодой специалист»

Выпуск №4 (38-39) (май-июнь, 2025)

Свидетельство о постановке на
учет периодического печатного
издания, информационного
агентства и сетевого издания
Эл № KZ26VPY00048061
от 15 апреля 2022 г.

Главная цель журнала заключается в публикации оригинальных статей, преимущественно научного и научно-технического направления, предоставлении научной общественности, научно-производственным предприятиям, представителям бизнес-структур, а также студентам, магистрантам и докторантам вузов возможность знакомиться с результатами научных исследований и прикладных разработок по ключевым проблемам в области передовых технологий.

Задачи журнала состоят:

- в предоставлении ученым возможности публикации результатов своих исследований по научным и научно-техническим направлениям;
- достижении международного уровня научных публикаций журнала;
- привлечении внимания научной и деловой общественности к наиболее актуальным и перспективным направлениям научных исследований по тематике журнала;
- привлечении в журнал авторитетных отечественных и зарубежных авторов, являющихся специалистами высокого уровня.

Журнал размещается и индексируется на порталах eLIBRARY.RU и Google Scholar.



**SANOAT TEMIR YO‘LLARIDA TASHKIL ETILGAN DUMPKARLI
MARSHRUTLARINING HARAKATLANISH GRAFIGIDA KUZATILAYOTGAN
TEXNOLOGIK UZILISHLARIGA HARAKAT XAVFSIZLIGI
BUZILISHINING TA’SIRI**

Yusupov Azizjon Qahramonovich

PhD, dotsent v.b., Toshkent davlat transport universiteti

yusupovaziztosh@gmail.com

Ibragimova Gulshana Ruslanovna

Phd, dotsent, Toshkent Davlat transport universiteti

ibragimova.gulshana@mail.ru

Normoxmatov Bekzodjon Shovkat o‘g‘li

magistrant, Toshkent davlat transport universiteti

Nurmuxammadova Nilufar Nuriddinovna

talaba, Toshkent davlat transport universiteti

myrtilleen@gmail.com

Annotatsiya Mazkur maqolada sanoat temir yo‘l transportida, xususan, “N” AJda dumpkarli marshrutlarda kuzatilayotgan texnologik uzilishlar va ularning harakat xavfsizligiga ta’siri tahlil qilinadi. Vagonlarning shikastlanishi, yuk tushirishdagi muammolar va yuklarning qabul qiluvchi setkalarda to‘planib qolishi kabi holatlar asosida mavjud muammo kompleks baholanadi. Shu asosda ma’dan yuklarini dumpkarlarga ortishga tayyorlash va ularni tushirish texnologiyalarini takomillashtirishga doir texnik-texnologik yechimlar taklif qilinadi va ularning iqtisodiy samaradorligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: sanoat temir yo‘l transporti; dumpkar vagonlar; harakat xavfsizligi; texnologik uzilishlar; avtomatlashtirish; vibratsion tozalash tizimi; vagon aylanishi; iqtisodiy samaradorlik.

**ВЛИЯНИЕ НАРУШЕНИЙ БЕЗОПАСНОСТИ ДВИЖЕНИЯ НА
ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ СРЫВ В ГРАФИКЕ ДВИЖЕНИЯ ДУМПКАРНЫХ
МАРШРУТОВ ПРОМЫШЛЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА**

Юсупов Азизжон Кахрамонович

PhD, и.о. доцент, Ташкентский государственный транспортный университет

yusupovaziztosh@gmail.com

Ибрагимова Гулшана Руслановна

PhD, доцент, Ташкентский государственный транспортный университет

ibragimova.gulshana@mail.ru



Нормохматов Бекзоджон Шовкат угли

Магистрант, Ташкентский государственный транспортный университет

Нурмухаммадова Нилуфар Нуриддиновна

студент, Ташкентский государственный транспортный университет

myrtilleen@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются технологические срывы, наблюдаемые на маршрутах с думпкарами в промышленном железнодорожном транспорте, в частности на предприятии «Н» АО, и их влияние на безопасность движения. Выявлены проблемы, связанные с повреждением вагонов, скоплением руды на решетках при разгрузке, а также перегрузкой платформ. На основе анализа предложены технические и технологические решения по подготовке и разгрузке рудных грузов с обоснованием их экономической эффективности.

Ключевые слова: промышленный железнодорожный транспорт; вагоны-думпкары; безопасность движения; технологические сбои; автоматизация; вибрационная система очистки; оборот вагонов; экономическая эффективность.

THE IMPACT OF TRAFFIC SAFETY VIOLATIONS ON TECHNOLOGICAL DISRUPTIONS IN THE MOVEMENT SCHEDULE OF DUMPCAR ROUTES IN INDUSTRIAL RAILWAY TRANSPORT

Yusupov Azizjon Qahramanovich

PhD, Associate Professor, Tashkent State transport University

yusupovaziztosh@gmail.com

Ibragimova Gulshana Ruslanovna

PhD, Associate Professor, Tashkent State Transport University

ibragimova.gulshana@mail.ru

Normokhmatov Bekzodzhan Shovkat ugli

master, Tashkent State transport University

Nurmukhammadova Nilufar Nuriddinovna

Student, Tashkent State Transport University

myrtilleen@gmail.com

Annotation: This article analyzes the technological disruptions occurring on dumpcar routes in industrial rail transport, particularly at the "N" JSC enterprise, and their impact on traffic safety. The study highlights issues such as wagon



damage, load accumulation on receiving grids during unloading, and unbalanced loading. Based on the analysis, technical and technological solutions are proposed for preparing and unloading ore materials, with justification of their economic efficiency.

Key words: industrial railway transport; dumpcar wagons; traffic safety; technological disruptions; automation; vibrational cleaning system; wagon turnaround; economic efficiency.

Kirish. Sanoat temir yo‘l transportida yuk tashish harakati ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ammo, ishlab chiqarish sur‘atlarining ortishi, konlarda qazib olinayotgan ma‘dan hajmining ko‘payishi va texnologik jihozlarning eskirishi dumpkarli marshrutlarda texnologik uzilishlar va transport vositalari ishdan chiqishi kabi xavfli holatlarga olib kelmoqda. Ayniqsa, “N” AJda kuzatilayotgan dumpkar vagonlarining ag‘darilishi, yuklarning setkalarda to‘planib qolishi va boshqa omillar vagon aylanishining sekinlashishiga, tashish muddati cho‘zilishiga hamda iqtisodiy yo‘qotishlarga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, temir yo‘l transportida harakat xavfsizligini saqlagan holda yuk tashishni tashkil etish texnologiyasini takmillashtirish bugungi kunning dolzarb muammosidir[1-5].

Tahlillar natijasida “N” AJda bir qator muammolar aniqlandi:

Harakat vaqtida vagonlarning nomutanosib orilishi, platforma va bunkerlar bilan moslashtirilmaganligi tufaylida dumpkar vagonlarining ag‘darilishlar kuzatilgan. Bunker tosh maydalagichning texnik nosozligi yoki ularning tozalanmasligi oqibatida yuklar tiqilib qolib yukning to‘planib qolishi holatlari aniqlandi. Ushbu texnologik uzilishlar nafaqat tashish muddatining cho‘zilishiga, balki vagonlarning uzoq turib qolishiga va shikastlanishiga olib keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot sanoat temir yo‘l transportida dumpkarli marshrutlarda yuk tashish texnologiyasini takomillashtirish va harakat xavfsizligini oshirishga qaratilgan. Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlar asosida olib borildi:

- transport tizimidagi barcha texnologik elementlar (vagon, yuk, platforma, bunker, boshqaruv tizimi) o‘zaro bog‘liq holda sistemali tahlil qilindi. Texnologik uzilishlar sabablarini aniqlashda bu usul yordamida butun tizim komponentlari o‘rganildi;

- “N” AJga qarashli sanoat temir yo‘l liniyalarida joyida diagnostika va vizual kuzatuvlar olib borildi. Vagon ag‘darilishi va yuk tiqilib qolish holatlari real ish sharoitlarida videofiksatsiya va hujjatlashtirish orqali qayd etildi;

- ilg‘or sanoat korxonalarida foydalanilayotgan texnologiyalar bilan mavjud holat taqqoslashli tahlili asosida solishtirildi. Bu tahlil asosida samarador va sust ishlovchi tizimlar o‘rtasidagi tafovutlar aniqlandi;

- vagon aylanishi, shikastlanish holatlari va ishlab chiqarishning to‘xtab qolishi bilan bog‘liq statistik ma‘lumotlar asosida matematik modellash orqali optimal texnologik variantlar aniqlandi;



- taklif etilgan texnik-texnologik yechimlarning iqtisodiy samarasi (masalan, vaqt tejallishi, shikastlanish kamayishi, ishlab chiqarish barqarorligi) moliyaviy ifodada hisoblab chiqildi;

- taklif qilingan ba'zi yechimlar eksperimental hududda (pilot uchastkada) amaliyotda sinovdan o'tkazilib, ularning amaliy natijalari baholandi[3-5].

Texnik-texnologik yechimlar. Tadqiqot davomida quyidagi texnik va texnologik chora-tadbirlar taklif qilindi:

1. Avtomatik vibratsion tozalash tizimi: Bunker setkalari yukning ag'darilishi jarayonida tezda to'lib qoladi. Bu holat yukning qabul qiluvchi bo'shlig'iga tushishini to'xtatadi va dumkar ag'darilishini xavf ostiga qo'yadi. Yechim: Setkalar avtomatik vibratsion (tebranish) tizim bilan jihozlanadi, bu yuklarni o'z vaqtida harakatga keltiradi va tiqilib qolishini oldini oladi.

2. Ortish platformalarini moslashtirish va barqarorlashtirish: Dumpkarli vagonlarning platforma bilan nomutanosib joylashuvi ag'darilish vaqtida muvozanat buzilishiga olib keladi. Yechim: Platformalar rekonstruksiya qilinib, vagon balandligi va markaziy og'irlik nuqtalari bo'yicha to'liq moslashtiriladi. Vagonlar uchun barqarorlashtiruvchi mahkamlagichlar qo'llaniladi.

3. Ilg'or axborot texnologiyalar asosida dispecherlik monitoring tizimi: Texnologik uzilishlar vaqtida real vaqtli ma'lumotlar yetishmasligi kechikishga sabab bo'ladi. Yechim: Sensor va kameralar orqali yuk harakati, vagon joylashuvi va setka to'liq to'lish holatlari dispecher markaziga uzatiladi. Bu tizim o'zgarishlarga tezkor javob berish imkonini beradi.

4. Zaxira texnik xizmat brigadalari: Uzilish sodir bo'lganda ta'mirlash guruhlarini uzoqdan yetib kelish zarurati mavjud. Yechim: Har bir muhim marshrutda navbatchi texnik brigadalar tashkil etiladi va ular muammoga joyida tezkor aralashadi.

5. Ortish jarayonini oldindan modellashtirish (Digital Twin): Ortish miqdori va yuk tarqalishini bashoratlash imkoniyati mavjud emasligi ba'zan ortiqcha yoki notekis yuklanishga sabab bo'ladi. Yechim: Har bir vagon uchun ortish hajmi va markazlashuv modelini yaratuvchi "raqamli egizak" (Digital Twin) texnologiyasi joriy etiladi [4-7].

Taklif etilgan yechimlarning iqtisodiy tahlili:

Ko'rsatkich	Amalga oshirilmagan holat	Yangi tizim bilan	Foyda
O'rtacha vagon aylanish vaqti	48 soat	32 soat	-33%
Vagonlar shikastlanishi holatlari (oylik)	12 ta	4 ta	-66%
Ishlab chiqarishning to'xtab qolishi (soat)	120 soat	50 soat	-58%
Umumiy yillik iqtisodiy samara	-	-	+1,2 mlrd so'm

Xulosa va takliflar. Tadqiqot davomida sanoat temir yo'l transportida, ayniqsa dumpkarli marshrutlarda yuzaga kelayotgan texnologik uzilishlar harakat xavfsizligiga, vagonlarning aylanish muddatiga, tashish jarayonining samaradorligiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mavjud texnologik muammolarni bartaraf etmaslik nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligiga, balki iqtisodiy yo'qotishlarga ham olib kelmoqda.



Quyidagi asosiy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi:

1. Texnologik uzilishlar (bunkerlar setkalarining tiqilib qolishi, dumpkarlarning agʻdarilishi, yuk ortishdagi nomutanosibliklar) tizimning oʻzaro bogʻliq boʻlgan barcha elementlarini kompleks baholash asosida hal etilishi kerak. Bu esa faqat lokal emas, balki tizimli modernizatsiyani talab etadi.

2. Bunker setkalarining avtomatik vibratsion tozalash tizimlari nafaqat yuk tushirish samaradorligini oshiradi, balki vagonlarning agʻdarilishi oldini oladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi dispecherlik nazorati yordamida texnologik jarayonlar real vaqt rejimida boshqariladi, bu esa kechikishlarni kamaytiradi va avariya holatlarning oldini oladi.

3. Zaxira texnik brigadalar tashkil etilishi uzilish holatlariga tezkor texnik javob berish imkonini beradi. Shikastlanish holatlari kamaygani sababli ekspluatatsion xarajatlar optimallashtiriladi.

4. “Digital Twin” texnologiyasi yordamida yuk ortishdagi ogʻirlik markazi va hajm tarqalishi oldindan modellashtiriladi, bu esa vagonlarning muvozanatli joylashuvini taʼminlaydi.

5. Iqtisodiy jihatdan asoslangan texnologik yangilanishlar korxona samaradorligini oshiradi. Vagon aylanish vaqti 33% ga qisqaradi. Vagon shikastlanishlari 66% ga kamayadi. Ishlab chiqarishning toʻxtab qolish soatlari 58% ga qisqaradi. Yillik 1,2 milliard soʻm iqtisodiy samara qoʻlga kiritiladi.

6. Ushbu tadqiqotda sinovdan oʻtgan va iqtisodiy jihatdan samarador deb topilgan yechimlar boshqa kon-metallurgiya korxonalarida yoki sanoat temir yoʻl tarmoqlarida ham muvaffaqiyatli joriy etilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.X. Aminov va boshqalar. Temir yoʻl transportida harakat xavfsizligi masalalari. – Toshkent: TTJ, 2020.

2. M.K. Usmonov. Sanoat transporti texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2018.

3. Е. А. Жарова и друг. Совершенствование вагонов-самосвалов для повышения их надежности в эксплуатации // Транспорт РФ. 2014. № 3. С. 51–54.

4. Мойкин Д. А., Борисов С. В. Экспертиза технического состояния вагона-самосвала (думпкара) и установление причин его разгрузки и схода. СПб.: НВЦ «Вагоны», 2014.

5. Романова А. А., Жарова Е. А., Решетов В. А., Хохлов С. В. Инновационный грузовой подвижной состав: технико-экономические параметры // Транспорт РФ. 2011. № 3. С. 16–20.

6. European Railway Agency. Railway Safety Performance Reports. – ERA, 2021–2023.

7. ISO 19296:2018. Mining – Mobile Machines – Safety Requirements. – International Organization for Standardization, 2018.



their impact on traffic safety. The study highlights issues such as wagon damage, load accumulation on receiving grids during unloading, and unbalanced loading. Based on the analysis, technical and technological solutions are proposed for preparing and unloading ore materials, with justification of their economic efficiency.

Key words: industrial railway transport; dumpcar wagons; traffic safety; technological disruptions; automation; vibrational cleaning system; wagon turnaround; economic efficiency.

**SANOAT TEMIR YO‘LLARIDA TASHKIL ETILGAN DUMPKARLI
MARSHRUTLARINING HARAKATLANISH GRAFIGIDA KUZATILAYOTGAN
TEXNOLOGIK UZILISHLARIGA HARAKAT XAVFSIZLIGI
BUZILISHINING TA’SIRI**

Yusupov Azizjon Qahramonovich

PhD, dotsent v.b., Toshkent davlat transport universiteti

yusupovaziztosh@gmail.com

Normoxmatov Bekzodjon Shovkat o‘g‘li

magistrant, Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya Mazkur maqolada sanoat temir yo‘l transportida, xususan, “N” AJda dumpkarli marshrutlarda kuzatilayotgan texnologik uzilishlar va ularning harakat xavfsizligiga ta’siri tahlil qilinadi. Vagonlarning shikastlanishi, yuk tushirishdagi muammolar va yuklarning qabul qiluvchi setkalarda to‘planib qolishi kabi holatlar asosida mavjud muammo kompleks baholanadi. Shu asosda ma’dan yuklarini dumpkarlarga ortishga tayyorlash va ularni tushirish texnologiyalarini takomillashtirishga doir texnik-texnologik yechimlar taklif qilinadi va ularning iqtisodiy samaradorligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: sanoat temir yo‘l transporti; dumpkar vagonlar; harakat xavfsizligi; texnologik uzilishlar; avtomatlashtirish; vibratsion tozalash tizimi; vagon aylanishi; iqtisodiy samaradorlik.

Kirish. Sanoat temir yo‘l transportida yuk tashish harakati ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ammo, ishlab chiqarish sur’atlarining ortishi, konlarda qazib olinayotgan ma’dan hajmining ko‘payishi va texnologik jihozlarning eskirishi dumpkarli marshrutlarda texnologik uzilishlar va transport vositalari ishdan chiqishi kabi xavfli holatlarga olib kelmoqda. Ayniqsa, “N” AJda kuzatilayotgan dumpkar vagonlarining ag‘darilishi, yuklarning setkalarda to‘planib qolishi va boshqa omillar vagon aylanishining sekinlashishiga, tashish muddati cho‘zilishiga hamda iqtisodiy yo‘qotishlarga sabab



bo'limoqda. Shu bois, temir yo'l transportida harakat xavfsizligini saqlagan holda yuk tashishni tashkil etish texnologiyasini takmillashtirish bugungi kunning dolzarb muammosidir[1-5].

Tahlillar natijasida "N" AJda bir qator muammolar aniqlandi:

Harakat vaqtida vagonlarning nomutanosib ortilishi, platforma va bunkerlar bilan moslashtirilmaganligi tufaylida dumpkar vagonlarining ag'darilishlar kuzatilgan. Bunker tosh maydalagichning texnik nosozligi yoki ularning tozalanmasligi oqibatida yuklar tiqilib qolib yukning to'planib qolishi holatlari aniqlandi. Ushbu texnologik uzilishlar nafaqat tashish muddatining cho'zilishiga, balki vagonlarning uzoq turib qolishiga va shikastlanishiga olib keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot sanoat temir yo'l transportida dumpkarli marshrutlarda yuk tashish texnologiyasini takomillashtirish va harakat xavfsizligini oshirishga qaratilgan. Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlar asosida olib borildi:

- transport tizimidagi barcha texnologik elementlar (vagon, yuk, platforma, bunker, boshqaruv tizimi) o'zaro bog'liq holda sistemali tahlil qilindi. Texnologik uzilishlar sabablarini aniqlashda bu usul yordamida butun tizim komponentlari o'rganildi;

- "N" AJga qarashli sanoat temir yo'l liniyalarida joyida diagnostika va vizual kuzatuvlar olib borildi. Vagon ag'darilishi va yuk tiqilib qolish holatlari real ish sharoitlarida videofiksatsiya va hujjatlashtirish orqali qayd etildi;

- ilg'or sanoat korxonalarida foydalanilayotgan texnologiyalar bilan mavjud holat taqqoslashli tahlili asosida solishtirildi. Bu tahlil asosida samarador va sust ishlovchi tizimlar o'rtasidagi tafovutlar aniqlandi;

- vagon aylanishi, shikastlanish holatlari va ishlab chiqarishning to'xtab qolishi bilan bog'liq statistik ma'lumotlar asosida matematik modellash orqali optimal texnologik variantlar aniqlandi;

- taklif etilgan texnik-texnologik yechimlarning iqtisodiy samarasi (masalan, vaqt tejalishi, shikastlanish kamayishi, ishlab chiqarish barqarorligi) moliyaviy ifodada hisoblab chiqildi;

- taklif qilingan ba'zi yechimlar eksperimental hududda (pilot uchastkada) amaliyotda sinovdan o'tkazilib, ularning amaliy natijalari baholandi[3-5].

Texnik-texnologik yechimlar. Tadqiqot davomida quyidagi texnik va texnologik chora-tadbirlar taklif qilindi:

1. Avtomatik vibratsion tozalash tizimi

Bunker setkalari yukning ag'darilishi jarayonida tezda to'lib qoladi. Bu holat yukning qabul qiluvchi bo'shlig'iga tushishini to'xtatadi va dumpkar ag'darilishini xavf ostiga qo'yadi.

Yechim: Setkalar avtomatik vibratsion (tebranish) tizim bilan jihozlanadi, bu yuklarni o'z vaqtida harakatga keltiradi va tiqilib qolishini oldini oladi.

2. Ortish platformalarini moslashtirish va barqarorlashtirish

Dumpkarli vagonlarning platforma bilan nomutanosib joylashuvi ag'darilish vaqtida muvozanat buzilishiga olib keladi.



Yechim: Platformalar rekonstruksiya qilinib, vagon balandligi va markaziy og'irlik nuqtalari bo'yicha to'liq moslashtiriladi. Vagonlar uchun barqarorlashtiruvchi mahkamlagichlar qo'llaniladi.

3. Ilg'or axborot texnologiyalar asosida dispecherlik monitoring tizimi

Texnologik uzilishlar vaqtida real vaqtli ma'lumotlar yetishmasligi kechikishga sabab bo'ladi.

Yechim: Sensor va kameralar orqali yuk harakati, vagon joylashuvi va setka to'liq to'lish holatlari dispecher markaziga uzatiladi. Bu tizim o'zgarishlarga tezkor javob berish imkonini beradi.

4. Zaxira texnik xizmat brigadalari

Uzilish sodir bo'lganda ta'mirlash guruhlarini uzoqdan yetib kelish zarurati mavjud. Yechim: Har bir muhim marshrutda navbatchi texnik brigadalar tashkil etiladi va ular muammoga joyida tezkor aralashadi.

5. Ortish jarayonini oldindan modellashtirish (Digital Twin)

Ortish miqdori va yuk tarqalishini bashoratlash imkoniyati mavjud emasligi ba'zan ortiqcha yoki notekis yuklanishga sabab bo'ladi.

Yechim: Har bir vagon uchun ortish hajmi va markazlashuv modelini yaratuvchi 'raqamli egizak' (Digital Twin) texnologiyasi joriy etiladi [4-7].

Taklif etilgan yechimlarning iqtisodiy tahlili:

Ko'rsatkich	Amalga oshirilmagan holat	Yangi tizim bilan	Foyda
O'rtacha vagon aylanish vaqti	48 soat	32 soat	-33%
Vagonlar shikastlanishi holatlari (oylik)	12 ta	4 ta	-66%
Ishlab chiqarishning to'xtab qolishi (soat)	120 soat	50 soat	-58%
Umumiy yillik iqtisodiy samara	-	-	+1,2 mlrd so'm

Xulosa va takliflar. Tadqiqot davomida sanoat temir yo'l transportida, ayniqsa dumpkarli marshrutlarda yuzaga kelayotgan texnologik uzilishlar harakat xavfsizligiga, vagonlarning aylanish muddatiga, tashish jarayonining samaradorligiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mavjud texnologik muammolarni bartaraf etmaslik nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligiga, balki iqtisodiy yo'qotishlarga ham olib kelmoqda.

Quyidagi asosiy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi:

1. Texnologik uzilishlar (bunkerlar setkalarining tiqilib qolishi, dumpkarlarning ag'darilishi, yuk ortishdagi nomutanosibliklar) tizimning o'zaro bog'liq bo'lgan barcha elementlarini kompleks baholash asosida hal etilishi kerak. Bu esa faqat lokal emas, balki tizimli modernizatsiyani talab etadi.

2. Bunker setkalarining avtomatik vibratsion tozalash tizimlari nafaqat yuk tushirish samaradorligini oshiradi, balki vagonlarning ag'darilishi oldini oladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi dispecherlik nazorati yordamida texnologik jarayonlar real vaqt rejimida boshqariladi, bu esa kechikishlarni kamaytiradi va avariya holatlarning oldini oladi.



3. Zaxira texnik brigadalar tashkil etilishi uzilish holatlariga tezkor texnik javob berish imkonini beradi. Shikastlanish holatlari kamaygani sababli ekspluatatsion xarajatlar optimallashtiriladi.

4. “Digital Twin” texnologiyasi yordamida yuk ortishdagi og‘irlik markazi va hajm tarqalishi oldindan modellashiriladi, bu esa vagonlarning muvozanatli joylashuvini ta’minlaydi.

5. Iqtisodiy jihatdan asoslangan texnologik yangilanishlar korxona samaradorligini oshiradi. Vagon aylanish vaqti 33% ga qisqaradi. Vagon shikastlanishlari 66% ga kamayadi. Ishlab chiqarishning to‘xtab qolish soatlari 58% ga qisqaradi. Yillik 1,2 milliard so‘m iqtisodiy samara qo‘lga kiritiladi.

6. Ushbu tadqiqotda sinovdan o‘tgan va iqtisodiy jihatdan samarador deb topilgan yechimlar boshqa kon-metallurgiya korxonalarida yoki sanoat temir yo‘l tarmoqlarida ham muvaffaqiyatli joriy etilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.X. Aminov va boshqalar. Temir yo‘l transportida harakat xavfsizligi masalalari. – Toshkent: TTJ, 2020.
2. M.K. Usmonov. Sanoat transporti texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Е. А. Жарова и друг. Совершенствование вагонов-самосвалов для повышения их надежности в эксплуатации // Транспорт РФ. 2014. № 3. С. 51–54.
4. Мойкин Д. А., Борисов С. В. Экспертиза технического состояния вагона-самосвала (думпкара) и установление причин его разгрузки и схода. СПб.: НВЦ «Вагоны», 2014.
5. Романова А. А., Жарова Е. А., Решетов В. А., Хохлов С. В. Инновационный грузовой подвижной состав: технико-экономические параметры // Транспорт РФ. 2011. № 3. С. 16–20.
6. European Railway Agency. Railway Safety Performance Reports. – ERA, 2021–2023.
7. ISO 19296:2018. Mining – Mobile Machines – Safety Requirements. – International Organization for Standardization, 2018.



МОСТЫ, ДОРОЖНЫЕ ПЕРЕХОДЫ И ПЕРЕПУСКИ В ГОРОДАХ. ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ОБЪЕКТОВ ГОРОДСКОГО ТРАНСПОРТА

Баротов Ашурали Ихтияр угли

магистрант, Ташкентский государственный транспортный университет

baratovashurali@gmail.com

Аннотация: В данной статье представлена аналитическая информация об основных принципах проектирования объектов городского транспорта: мостов, путепроводов и путепроводов в городах. Высказаны мнения и мнения об архитектурных требованиях к проектированию мостов, путепроводов и путепроводов в городах и нормах и правилах, установленных для мостов и путепроводов в современном городском строительстве.

Ключевые слова: мост, эстакада, железнодорожные мосты, тоннель, городская архитектура, нормы и правила, искусственное сооружение, железнодорожная линия.

BRIDGES, ROAD PASSAGES AND OVERFLOWS IN CITIES. BASIC PRINCIPLES OF DESIGNING URBAN TRANSPORT FACILITIES

Barotov Ashurali Ikhtiyor ugli

Master student, Tashkent State Transport University

baratovashurali@gmail.com

Annotation: This article provides analytical information on the main principles of designing urban transport facilities: bridges, overpasses and overpasses in cities. Opinions and opinions about the architectural requirements for the design of bridges, overpasses and overpasses in cities and the norms and rules set for bridges and overpasses in modern urban construction are expressed.

Key words: bridge, overpass, railway bridges, tunnel, urban architecture, norms and regulations, man-made structure, railway line.

SHAHARLARDA KO'PRIKLAR, YO'L O'TKAZGICHLAR VA ESTAKADALAR. SHAHAR TRANSPORT INSHOOTLARINI LOYIHALASHNING ASOSIY TAMOYILLARI

Barotov Ashurali Ixtiyor o'g'li

magistrant, Toshkent davlat transport universiteti


baratovashurali@gmail.com

Annotatsiya Mazkur maqolada shaharlarda ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar va estakadalar shahar transport inshootlarini loyihalashning asosiy tamoyillari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shaharlarda ko'priklar, yo'l

o'tkazgichlar va estakadalarni loyihalash bo'yicha arxitektura talablari va zamonaviy shahar qurilishida ko'priklar va estakadalar uchun belgilangan me'yor va qoidalar haqida fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: ko'prik, yo'l o'tkazgich, temir yo'l ko'priklari, tunnel, shahar arxitekturasida, me'yor va qoidalar, sun'iy inshoot, temir yo'l liniyasi.

Kirish. Shaharlardagi asosiy shahar transport inshootlari – bu **ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar va estakadalardir** (1-rasm). Ko'priklar suv to'siqlari (daryolar, ko'llar, dengiz bo'g'ozlari, suv havzalari va boshqalar) ustidan, viaduklar esa chuqur daralar orqali quriladi. Ko'prik yoki viyaduk poezdlar va avtomobillarning harakatlanishini va ko'cha yoki magistral bo'ylab o'tish joylarini ta'minlaydi.



1-rasm. O'sma, vantli va kombinatsiyalangan oraliq qurilmalar
Shaharlarda ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar va estakadalarni loyihalash va qurish xususiyatlari

Ularning konstruksiyasi asosan to'siq turi, uning xususiyatlari va transport talablari bilan belgilanadi.

Yo'l o'tkazgich – bu avtomobil, temir yo'l yoki ko'chani kesib o'tuvchi ko'prik inshootidir. Piyodalarni avtomobil yoki temir yo'l orqali olib o'tish uchungina foydalaniladigan yo'l o'tkazgichlar piyodalar o'tkazgichlari deb ataladi, lekin ular odatda piyodalar ko'prigi deb ataladi.

Yo'l o'tkazgichlarning shakliga ko'ra (2-3-rasmlar):

- ✓planda to'g'ri chiziqli va egri chiziqli;
- ✓bir va ko'p yarusli;
- ✓halqali va spiral
- ✓balkali, ramali yoki arka tizimli;

✓metall, temirbeton va po‘lat-temirbetondan oraliqli qilib quriladigan xillari mavjud. Ular ko‘pincha 1-4 oraliqli (10-40 m va undan ortiq oraliqda) qilib quriladi[1].



2-rasm. Planda egri chiziqli qilib loyihalangan yo‘l o‘tkazgich



3-rasm. Halqali usulda loyihalangan yo‘l o‘tkazgich

Estakada – transport vositalarining yerdan to‘siqsiz o‘tishi uchun mo‘ljallangan inshoot hisoblanadi. **Estakadalar** quyidagi hollarda qo‘llaniladi (4-rasm):

- ikki yoki undan ortiq transport magistrallarining kesishgan joylarida;
- ko‘chalarning o‘tkazuvchanligini oshirish;
- yuqori tezlikdagi avtomobil magistrallarining mavjud ko‘cha tarmog‘idan qat’iy nazar, shahar obodonlashtirish ustidan o‘tishini ta’minlash;
- ko‘p sonli avtomashinalar to‘planadigan hududlarga (vokzallar, aeroportlar, mehmonxonalar, stadionlar) yaqinlashishda;
- qirg‘oqlarni kengaytirish va daryolar bo‘ylab, yon bag‘irlarida, botqoqliklarda va boshqa murakkab hududlarda qirg‘oq va tayanch devorlar o‘rniga harakatlanishni tashkil etish[1].



4-rasm. Planda egri chiziqli qilib loyihalangan estakada inshooti

Rejada joylashishiga ko'ra ular to'g'ri – egrichiziqli, taqsimlanishi, halqali va spiral estakadalarga bo'linadi; harakat sathlari soni bo'yicha bir va ko'p darajali. Estakadalar birinchi navbatda avtomobillar va shahar transportining boshqa turlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan. Ularda bir vaqtning o'zida piyodalar harakati tashkil etilishi juda kam uchraydi[1-2].

Shaharlarda ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar va estakadalarni loyihalash bo'yicha arxitektura talablari

Shaharlarda ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar va estakadalarni loyihalash bo'yicha arxitektura va qurilish talablaridan asosiylari quydagilar:

✓ **Ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar va estakadalar** – xizmat muddati bilan ya'ni ekspluatatsion foydalanish davomiyligi, hamda ularni almashtirish (yoki biror-bir oraliqni kuchaytirish), imkoniyati va shahar transport tizimi qulayligini ta'minlashi kerak;

✓ piyodalar uchun loyihalangan ko'priklarda yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash maqsadida havfsizlik panjaralari sinmaydigan shisha yoki boshqa materiallardan hamda mustahkam himoya qoplamalaridan foydalanish kerak. Himoya qoplamalarining biriktirmalarining dizayni shikastlanganda ushbu qoplamalarni ta'mirlash yoki almashtirish imkoniyati oson bo'lishi va shahar infratuzilmasi talablarini ta'minlashi kerak. Po'latdan tayyorlangan himoyalovchi panjaralarning mahkamlash qismlari metallashtirilgan qoplamalar bilan qoplangan bo'lishi kerak;

✓ oraliq qurilmalarning barcha qismlari va tayanchlarning ko'rinadigan sirtlari tekshirish va texnik xizmat ko'rsatish uchun ochiq bo'lishi kerak, buning uchun o'tish joylari va panjarali (balandligi kamida 1,1 m), maxsus zinapoyalarni o'rnatish tavsiya etiladi. Tekshirish asboblardan foydalanish, shuningdek, vaqtincha ishalash (buyurtmachi va ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotning iltimosiga binoan), yo'l belgilari va ma'lumot taxtalarini ko'rsatib turish uchun po'lat elementlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Qutisimon shakldagi oraliq qurilmalarda ularning ichki yuzalarini yoritilganligi ta'minlanishi kerak;

✓ ko'prik konstruksiyalarini loyihalashda uning asosiy texnik tavsiflari va xususiyatlarini ko'rsatadigan inshoot passporti ishlab chiqilishi kerak;



✓ ko‘priklarning barcha metall konstruksiyalari elektr xavsizligini ta’minlashi uchun yerga ulangan bo‘lishi kerak. Ko‘prikda aloqa tarmog‘i mavjud bo‘lsa, temirbeton va beton konstruksiyalar ham elektr xavsizlikni ta’minlagan bo‘lishi kerak;

✓ ko‘priklar deformatsion choklari ichidagi qismlar harorat harakatiga to‘sqinlik qilmasligi, yuk ko‘taruvchi elementlarni tekshirish va boshqa texnik xizmat ko‘rsatish hamda ta’mirlash ishlariga xalaqit bermasligi kerak;

✓ ko‘prik osti bo‘shliqlarida issiqlik, suv ta’minoti, aloqa, elektr va kanalizatsiya tarmoqlarini ulash imkoniyatini ta’minlashi tavsiya etiladi[2].

Murakkab transport chorrahalari – bu turli yo‘nalishdagi harakatlanish uchun ko‘p pog‘onali estakadalar bo‘lib, ular murakkab ko‘cha tarmoqlari bo‘lgan shaharlarda va yirik ko‘priklarga yaqinlashganda, shuningdek mavjud ko‘cha zarur o‘tkazuvchanlikni ta’minlamaganda keng tarqalgan. Shahardagi suv havzalari qirg‘oqlaridagi inshootlari bo‘ylab harakatlanishni tashkil qilishda ularning o‘tkazuvchanligini oshirishga daryo o‘zanida estakadalar qurish orqali erishiladi. Bir qator hollarda ko‘cha tarmog‘iga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lum bir yo‘nalishda katta transport oqimlarini o‘tkazish zarurati paydo bo‘ladi. Keyin transportni tanlangan yo‘nalishda shahar binolari ustidan o‘tadigan estakadaga o‘tkazish mumkin. Ushbu estakada tranzit bo‘lishi mumkin yoki kesishgan hududning ko‘chalari bilan bog‘lanish uchun xizmat qilishi mumkin[2].

Aeroportlarda, yirik mehmonxonalarda, stadionlarda, daryo va dengiz portlarida estakadalarni qurish zarurati tug‘iladi. Bunday joylarda estakadalar shaharsozlikning me’moriy ansambliga mos kelishi lozim va shuning uchun ko‘pincha juda murakkab shaklga ega. Juda noqulay yoki tog‘li yerlarda joylashgan shaharlarda yon bag‘irlari bo‘ylab estakadalar qurish mumkin (5-6-rasmlar).



5-rasm. Shoudu (Xitoy) xalqaro aeroporti 3-terminaliga olib boruvchi estakada



6-rasm. Kansay (Yaponiya) xalqaro aeroportiga olib boruvchi estakada

Shahar qirg'oqlarining tirkak devorlari daryo bo'ylab transportning o'tishini ta'minlaydi va shu bilan birga daryoni tartibga solish inshootlari va shahar me'moriy ansamblining elementlari rolini o'ynaydi[3].

Monorels yo'llardagi estakadalar vagonlarni yo'lovchilar bilan harakatlantirish uchun mo'ljallangan.

Xulosa. Bugungi kunda qurilin ekspluatatsiyaga topshirilayotgan yangi ko'priklar va yo'l o'tkazgichlar qurilish talablariga to'la qonli javob bera olishi va shahar aholisi uchun sifatli xizmat ko'rsatishi zarur. Yangi temir yo'l va avto yo'l ko'prigi qurilishi va ishlashida ekologik xavfsizlikka e'tibor qaratish, shuningdek, transport tizimlarining xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Salixanov S.S. Transport inshootlarini loyihalash va qurish. – Toshkent, I-tom. – 2018 y.
- 2.Salixanov S.S. Transport inshootlarini loyihalash va qurish. – Toshkent, II-tom. – 2018 y.
3. У.З. Шермухамедов, М.А. Абдухатова. Современное состояние и перспективы проектирования и строительства городских транспортных сооружений республики Узбекистан // Журнал “Путевой навигатор”, Санкт-Петербург, № 36-37. 2018. с. 24-28.



VAGONLAR PARKINI BOSHQARISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Jumayev Sherzod Bahrom o'g'li

t.f.n., PhD, Toshkent davlat transport universiteti

Madatov Ilxomjon Mexriddin o'g'li

magistrant, Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya Ushbu maqolada yuk tashish jarayonida xususiy vagon parklarining temiryo'l tarmog'ida faoliyat yuritish texnologiyasini takomillashtirish zarurati muhokama qilinadi. Yuk tashish tizimidagi mavjud muammolarni tahlil qiladi va xususiy vagonlarga egalik qiluvchi kompaniyalar faoliyatini optimallashtirish orqali temiryo'l transportining samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: xususiy vagonlar, yuk tashish, temiryo'l transporti, transport texnologiyasi, tashish jarayoni, logistika, iqtisodiy samaradorlik, rejalashtirish, vagon aylanishi

АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНЫХ ЭКСПЕРИМЕНТОВ ПО УПРАВЛЕНИЮ ПАРКОМ ВАГОНОВ

Жумаев Шерзод Бахром угли

к.т.н., PhD, Ташкентский государственный транспортный университет

Мадатов Илхом Мехриддин угли

магистрант, Ташкентский государственный транспортный университет

Аннотация: В статье рассматривается необходимость совершенствования технологии эксплуатации частного вагонного парка на сети железных дорог при перевозке грузов. Анализирует существующие проблемы в системе грузовых перевозок и показывает возможности повышения эффективности железнодорожного транспорта за счет оптимизации деятельности частных вагоновладельческих компаний

Ключевые слова: частные вагоны, грузовые перевозки, железнодорожный транспорт, транспортная технология, процесс перевозки, логистика, экономическая эффективность, планирование

ANALYSIS OF FOREIGN EXPERIMENTS ON THE MANAGEMENT OF THE FLEET OF WAGONS

Jumaev Sherzod Bahrom ugli

c.t.s., PhD, Tashkent State transport University

Madatov Ilkhom Mekhriddin ugli

Master student, Tashkent State Transport University



Annotation: This article discusses the need to improve the technology of operating private wagon fleets on the railway network in the process of freight transportation. It analyzes the existing problems in the freight transportation system and shows the possibilities of increasing the efficiency of railway transport by optimizing the activities of companies owning private wagons.


Key words: private wagons, freight transportation, rail transport, transport technology, transportation process, logistics, economic efficiency, planning, wagon turnover

Kirish. Temir yo‘l transportini boshqarish modellarining ikkita asosiy turi mavjud. Yevropa modeli – infratuzilma va tashishni ajratish. Bunda raqobat bir nechta transport kompaniyalari yoki harakat tarkibi operatorlarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Amerika modeli – temir yo‘l tarmog‘i bir-biri bilan raqobatlashadigan bir qancha tashish yo‘nalishlaridan iborat. Shu bilan bir qatorda, boshqa tashuvchilar va harakat tarkibi egalari uchun har qanday temir yo‘l xususiy infratuzilmasiga kirish imkoniyati amalga oshiriladi.

Rossiya temir yo‘l transportini boshqarish modeli Yevropa modeliga yaqinroq. Biroq, jahonda Yevropa boshqaruv modelidan foydalanadigan va shu bilan birga tashish hajmi va temir yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha “Rossiya temir yo‘llari” OAJ bilan taqqoslanadigan xorijiy temir yo‘llar mavjud emas.


Temir yo‘l transportini boshqarishning Yevropa, Amerika, Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari modellari strukturasi 1-rasmda ko‘rsatilgan.



1-rasm. Temir yo‘l transportini boshqarish modellari strukturasi [3].

Rossiya temir yo‘llari temir yo‘llarning ekspluatatsion uzunligi bo‘yicha ikkinchi, yuk tashish bo‘yicha (Xitoy va AQShdan keyin) va yo‘lovchi tashish (Yaponiya va Hindistondan keyin) uchinchi o‘rinni egallaydi. Shu bilan birga, u dunyoning barcha mamlakatlari temir yo‘llari yuk aylanmasining taxminan 25 foizini va yo‘lovchi aylanmasining 15 foizini bajaradi [4, 5, 6, 7].

AQSh bozorida jami 568 ta yuk temir yo‘llari mavjud bo‘lib, ulardan 7 tasi birinchi toifaga tegishli. Umumiy yuk aylanmasi 2524,7 milliard t-km. ni tashkil etadi [1]. Xodimlarning umumiy soni 200 mingdan ortiq. Xodimlarning ixtisosligi bo‘yicha taqsimlanishi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. AQSh temir yo‘llarida xodimlar sonini ixtisosliklar bo‘yicha taqsimlanishi (% hisobida)

AQSh temir yo‘llarining harakat tarkibi vagonlarning bo‘sh yurishini 50% ga yaqin qisqartirish imkoniyatini cheklaydigan yuklarning ayrim turlari bo‘yicha yuqori ixtisoslashuvga ega (1-jadval).

1-jadval

AQSh temir yo‘llarining vagonlar parki strukturasi

Vagon turi	Barcha mulkdorlarga tegishli jami vagonlar	I toifa temir yo‘llari	Boshqa temir yo‘llar	Vagonlarga egalik qiluvchi kompaniyalar va yuk jo‘natuvchilar
Universal yopiq vagonlar	11 610	1 121	3 532	6 957
Ixtisoslashgan yopiq vagonlar	78 927	49 629	26 626	2 042
Xopper yopiq vagonlar	394 282	92 833	15 050	286 399
Platforma	155 816	82 256	21 390	52 170
Refrijeratorlar	14 479	10 827	990	2 662
Yarim ochiq vagonlar	202 793	85 978	18 321	98 494
Xopperlar	151 410	56 872	9 037	85 501
Sisternalar	270 735	900	19	269 816
Boshqa turdagi vagonlar	3 803	283	1 007	2 513
Jami	1 283 225	380 699	95 972	806 554

Temir yo‘llar xususiy kompaniyalarga tegishli bo‘lishiga qaramay, ular orqali tashish ishlari egalari boshqa bo‘lgan vagonlarda ham amalga oshirilishi mumkin. Shunday qilib, Rossiya va AQSh temir yo‘llarida vagonlar parkini boshqarish vazifasi bir-biriga o‘xshash.




AQSh temir yo‘llarida vagon parkiga egalik qilish huquqini tahlil qilish, uning egalari tomonidan kuchli parchalanish bo‘lganligini ko‘rsatadi, shu sababli vagonlarga egalik qilish bo‘yicha aniq va katta liderlar yo‘q [1] (2-jadval).

2-jadval


2023-yil holatiga ko‘ra AQSh va Rossiya temir yo‘llarining eng yirik vagon egalari bo‘yicha vagonlar parki o‘lchamlarini taqqoslash

AQSh yuk tashuvchisining nomi	Vagonlar soni, ming. sh.b.	RF operatorlarining nomi
Union Pacific (UP)	103,8	ОАО «ПЕРВАЯ ГРУЗОВАЯ КОМПАНИЯ»
Burlington Northern And Santa Fe (BNSF)	103,1	ОАО «ФГК»
Norfolk Southern <i>(sho‘ba korxonalari bilan)</i>	90,5	ГлобалТранс
CSX Transportation (CSX)	72,5	ООО «РТК»
Grand Truck Corporation (CNGT)	64,4	ООО «НефтеТрансСервис»
SOO LINE (SOO)	52,1	ООО «Трансойл»
Boshqa	813,6	Boshqa
Jami:	1,3 mln.	1,3 mln.

Tadqiqot ishi doirasida AQSh temir yo‘llarida yuk vagonlari parkining 2023-yildagi ulushi (vagon turlari bo‘yicha) hamda tijoriy yuklash ko‘rsatkichlari (yuk turlari bo‘yicha) tahlili olib borildi (1.4-, 1.5-rasmlar)



3-rasm. AQSh temir yo‘llarida yuk vagonlari parkining 2023-yildagi ulushi (vagon turlari bo‘yicha)



1.5-rasm. AQSh temir yo'llarida 2023-yil davomida tijoriy yuklash ko'rsatkichlari (yuk turlari bo'yicha)

AQSh temir yo'l transporti kompaniyalari ko'pincha lizing sxemasi bo'yicha mavsumiy tashish davrida qo'shimcha vagon parkini jalb qilish kabi usullardan foydalanadi.

Shimoliy Amerikada yuk jo'natuvchilar har qanday kompaniyada yuklarni buyurtma qilish imkoniyatiga ega. Ammo vertikal integratsiyalashgan boshqaruv tizimi tufayli, bitta mijoz yuklarini yuklash bitta stansiyada 1-2 kompaniyaning vagonlari tomonidan ta'minlanadi. Bu yuklash joylarida vagonlarning sug'urta zaxiralari hajmini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi. Bundan tashqari, Shimoliy Amerika temir yo'llarida yuk egalarining logistik munosabatlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Harakat tarkibining yuqori ixtisoslashuvi tufayli bo'sh yurish koeffitsiyenti taxminan 0,5 ni tashkil qiladi. Shu sababli, asosiy e'tibor yuk amallari bajariladigan stansiyalarda vagonlarning turib qolishini kamaytirishga, rejalashtirilgan tashish hajmini hisobga olgan holda vagon parki hajmini boshqarishga va yuk ko'tarish qobiliyatini oshirishga qaratilgan.

Yevropa temir yo'llarida tashish jarayonlarini boshqarish tizimi Rossiya Federatsiyasidagi boshqaruv tizimiga o'xshash. Bunda vagon parkining katta qismi dominant kompaniya (umumiy vagon parkining 70-80 foizi)ga tegishli.


AQSh temir yo'l vagonlari parkini umumiy tahlil qilish natijalariga ko'ra, bo'sh vagonlarni taqsimlash vazifasi birinchi darajali dolzarb masala emas, chunki yuk vagonlarining asosiy qismi yuklash va tushirish stansiyalari orasida halqa sifatida ishlashi joriy qilingan.

Shu bilan birga, vagonlar soni, tashishning har bir yo'nalishi uchun ularning aniq tanlanishi va vagonlarning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish hisobiga vagonlardan foydalanish samaradorligini yuqori ko'rsatkichga yetkazish mumkin.



Vagon parklaridan samarali foydalanish tizimini kompleks tashkil etish uchun jahonda har xil tajribalar olib borilmoqda. Jumladan, “Rossiya temir yo‘llari” OAJ temir yo‘l transporti infratuzilmasining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish muammosini hal qilish uchun har xil mulkdorlarga tegishli vagonlarning yaxlit parkini boshqarish sxemasini ishlab chiqdi.


Yuqoridagi keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, vagonlar parkini boshqarish sohasidagi operatorlar ikkita modelining boshqalariga nisbatan rivojlanishi mumkinligini tasdiqlaydi. Bular: “tarmoq integratori (компания «сетевого интегратора»)” va “kam quvvatli («нишевых» компаний)” kompaniyalar. Ushbu ikki turdagi operatorlar modeli (kompaniyalar) faoliyati chet el temir yo‘llari misolida qiyosiy tahlil qilindi (1.6-rasm).



1.6-rasm. Vagonlar parkini boshqarish sohasidagi operatorlar faoliyatining qiyosiy tahlili

Qiyosiy tahlil natijalaridan ko‘rish mumkinki, hozirgi kunda Yevropa Ittifoqi, AQSh hamda Kanada davlatlarida vagonlar parkini ixtisoslashtirishda 3 xil kompaniya xizmatlaridan foydalanish mumkin ekan. Bular, “tarmoq integratori”, “kam quvvatli” kompaniyalar va tezkor lizing kompaniyalari.

Ilmiy tadqiqot ishi doirasida Rossiya temir yo‘llari tajribasi ham o‘rnatildi. “Rossiya temir yo‘llari” OAJda vagon parkini boshqarish tizimining bosqichma-bosqich rivojlanish davri 1.7-rasmda keltirilgan. Bunda temir yo‘l transporti bozoridagi barcha vagonlar uchun teng raqobat sharoitlarini ta‘minlash maqsadi oldinga qo‘yilgan.



1.7-rasm. "Rossiya temir yo'llari" OAJda vagon parkini boshqarish tizimi

Xulosa. Bugungi kunda temir yo'l transporti infratuzilmasi yuklamalari ortib, vagonlardan foydalanish sifat ko'rsatkichlari yomonlashayotgan bir paytda, har bir harakat tarkibi egasi o'zining logistika tizimini optimallashtirishga harakat qilmoqda. 2023-yilgi statistik ma'lumotlarga murojaat qilsak, inventar vagonlardan foydalanish ko'rsatkichlari shaxsiy vagonlardan foydalanish ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin. Masalan, xususiy vagon aylanmasi, uning shaxobcha yo'llarida joylashgan joyini hisobga olgan holda, yilning birinchi yarmida 16 sutkani tashkil etgan va "O'zbekiston temir yo'llari" AJga qarashli vagon aylanmasi 20 sutkani tashkil etgan. Shu bilan birga, inventar park tasarrufidagi vagonlarda tashish masofasi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ infratuzilmasi doirasida 340 kmni tashkil qilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, vagonlar parkini tartional tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalar va ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ sharoitida vagon parkini modernizatsiya qilish, ulardan foydalanish bo'yicha chet el tajribalarini mahalliyashtirishga ehtiyoj seziladi. Chunki temir yo'l transportida vagon parkini modernizatsiya qilish va ulardan foydalanish bo'yicha oqilona yechimlarni amaliyotga joriy etish temir yo'l infratuzilmalari ish samaradorligini yanada oshirish bilan bir qatorda poyezdlar harakati xavfsizligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. RAILROAD FACTS (2012 г.). (Отчет по работе американских железных дорог за 2011 г., с исправлениями и дополнениями). М.: ЦНТИБ. – 87 с

2. Питтмэн, Р. Вертикальная реструктуризация инфраструктурных отраслей в странах с переходной экономикой [Текст] / [Перевод с англ. И. В. Розмаинского, под ред. В. И. Моргунова]. М.: Московский центр Карнеги // Working Papers. – 2003. – 26 с.

3. Железнодорожный транспорт за рубежом [Текст] // Экспресс-информация. Вып. 1. – М: ЦНИИТЭИ МПС, 1999. – 32 с.

4. Железнодорожный транспорт за рубежом [Текст] // Экспресс-информация. Вып. 2. – М: ЦНИИТЭИ МПС, 1999. – 34 с.



**POVERTY REDUCTION MEASURES IN TASHKENT REGION AND ISSUES OF
THEIR IMPLEMENTATION**

Karakulov Nurbol Maidanovich

Acting Associate Professor of the Department of Geography and its teaching methodology,
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

nkaraqulov@mail.ru

Risbekov Adilbek Jumanqulovich

Lecturer of the Department of Geography and its teaching methodology, Tashkent State
Pedagogical University named after Nizami

Allayorov Shokirjon Ikrom ugli

Master of the Department of Geography and its teaching methodology,
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Abduvaliyev Saidolim Saidali ugli

Master of the Department of Geography and its teaching methodology,
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

